

## XITOY XALQ RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARINING O’SISHI OMILLARI

*Bibisara Sadibekova Djapparovna*  
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasini  
dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

*Shaxzoda Xasanova Sarvar qizi*  
“Iqtisodiyot va menejment”  
kafedrasini stajyor o’qituvchisi  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

*Feruza Zakirjanova Yuldashevna*  
“Iqtisodiyot va menejment”  
kafedrasini katta o’qituvchisi  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

**Annotasiya.** Maqolada Xitoy Xalq Respublikasida aholining daromadlari o’sishining zamonaviy tendensiyalari tahlil qilingan bo’lib, unda Xitoyning oxirgi o’n yillikdagi iqtisodiy yuksalishi va aholining umumiy farovonligi va daromadlarining sezilarli oshishi o’rtasidagi sabab-oqibat bog’lanishlari tahlil qilingan. Maqolada iqtisodiy o’sish va modernizatsiya natijasida yuzaga kelgan o’zgarishlar, shahar va qishloq aholisining daromadlari o’rtasidagi farq ko’rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** Djini koeffitsenti, MIHM, qishloq, shahar, o’rtacha ish haqi, iqtisodiy o’sish, yirik shaharlar, minimal ish haqi.

## FACTORS OF PERSONAL INCOME GROWTH IN THE PEOPLE'S REPUBLIC OF CHINA

*Bibisara Sadibekova Djapparovna*  
Associate professor of the department of  
“Economics and Management”,  
TSUOS, candidate of economic sciences

*Shakhzoda Xasanova Sarvar kizi*  
Teacher of the department of  
“Economics and Management”, TSUOS

*Feruza Zakiryanova Yuldashevna*  
Senior Lecturer of the Department of

**Annotation.** This article analyzes the modern trends in income growth of the population in the People's Republic of China. China's economic rise over the past decades has led to a significant increase in the general prosperity and income levels of the population. The article highlights key trends that have emerged as a result of economic growth and modernization, including the income gap between urban and rural populations

**Keywords:** Coefficient Gini, village, city, average salary, economic growth, large city, minimum salary

## ФАКТОРЫ РОСТА ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ В КИТАЙСКОЙ НАРОДНОЙ РЕСПУБЛИКЕ

**Садибекова Бибисора Джаппаровна**  
Доцент кафедры “Экономика и менеджмент”  
ТГУВ, кандидат экономических наук

**Шахзода Хасанова Сарвар кизи**  
Стажер-преподаватель кафедры  
“Экономика и менеджмент” ТГУВ

**Феруза Закиржанова Юлдашевна**  
Старший преподаватель кафедры  
“Экономика и менеджмент” ТГУВ

**Аннотация.** В данной статье анализируются современные тенденции роста доходов в Китайской Народной Республике. Экономический рост Китая в последние десятилетия привел к значительному росту общего благосостояния и доходов населения. В статье показаны изменения, произошедшие в результате экономического роста и модернизации, а также разница в доходах городских и сельских жителей.

**Ключевые слова:** Коэффициент Джини, село, город, средняя заработка, экономический рост, крупные города, минимальная заработка.

### KIRISH

Aholi daromadlari bu – barcha aholiga tegishli pul va natural tushumlar hamda ko‘rsatilgan bepul xizmatlar summasi hisoblanasi. Aholining jami [www.sharqjurnali.uz](http://www.sharqjurnali.uz)

DOI: 10.5281/zenodo.15342237

daromadlari manbasi ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalar, mukofot, foyda, dividend, zayom va turli lotereya yutug‘i, bankdagi deposit bo‘yicha to‘langan foiz puli, ko‘chmas mulkdan kelgan renta to‘lovi va ijara puli, sug‘urta qoplamlari hamda boshqalardan iborat.

Bozor sharoitida aholi daromadlarining katta qismi pul shakliga ega. Qishloq aholisi o‘zining tomorqa xo‘jaligidan mahsulot olib daromad ko‘radi va u natural daromadga kiradi. Shuningdek, aholining yordamga muhtoj qatlamlariga bepul mahsulot beriladi va xizmatlar ko‘rsatiladi (bepul ovqatlanish, kiyim-kechak, dori-darmon, transport va kommunal xizmati va hokazo); bular natural daromadlar hisoblanadi.

Bizga ma’lumki, aholi daromadlari nominal va real daromadlarga bo‘linadi. Nominal daromad aholi muayyan pul summasi shaklida olgan daromad bo‘lib, inflyatsiya ta’sirida uning xarid qobiliyati pasayishi mumkin.

Real daromad esa – pul shaklidagi daromad bo‘lib, amalda qancha miqdorda iste’mol buyumlari va xizmatlar xarid etish mumkinligini ko‘rsatadi. Aholi jon boshiga hisoblangan real daromad aholi turmush darajasining umumlashgan va yaxlit ko‘rsatkichi hisoblanadi. Iqtisodiyotda aholi yalpi pul daromadlaridan barcha majburiy va ixtiyoriy to‘lovlar (soliqlar, qarz puli, badallar) chegirib tashlangandan so‘ng uning qo‘liga tegadigan daromad ham muhim ahamiyatga ega. Aholi qo‘liga tegadigan daromad miqdoriga soliqlar kuchli ta’sir etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda ish haqi daromadning 2/3 qismini tashkil etadi. Agar, mamlakatda xususiy mulk ustuvor bo‘lib, renta, aholi pul jamg‘armasi ko‘p bo‘lsa, bank to‘laydigan foiz puli salmoqli bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tarkib jihatidan mehnatdan, tadbirkorliqdan, mulkdan olingan daromadlar va transfert (nochorlarga budgetdan beriladigan nafaqa va yordam puli) kabi daromadlardan shakllanadi.

2023-yilda O’zbekistonda aholi jon boshiga umumiyligi daromadlarning real o‘sishi 102,4 foizni tashkil etdi (2022-yilda 107,3 foiz). Mamlakat bo‘yicha jon boshiga umumiyligi daromadlar 20 mln. so‘mni tashkil etdi, eng yuqori ko‘rsatkich

Toshkentda (44,4 mln so‘m), eng quyi ko‘rsatkich esa Qoraqalpog‘istonda (14,5 mln so‘m) qayd etildi<sup>1</sup>. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida O‘zbekiston Respublikasi aholi daromadlarida bozor tizimiga xos yangi daromad turlari (tadbirkorlik, mult daromadi kabilar)ning ko‘payib borishi kuzatiladi.

## ASOSIY QISM

Xitoyda ham boshqa mamlakatlardagi kabi minimal ish haqi miqdori (MIHM) qonunchilik darajasida belgilanadi. MIHM belgilanayotganda quyidagi omillar e’tiborga olinadi:

- mintaqaninig iqtisodiy o‘sish sur’ati;
- provinsiyadagi o‘rtacha ish haqi summasi;
- ishsizlik miqdori;
- turli oziq-ovqat mahsulotlarining qiymati;
- ko‘chmas mult narxi.

XXRda o‘rtacha ish haqi 2019-yilda oyiga 1000 AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, real daromad miqdori va minimal oklad u qaysi provinsiyada faoliyat yuritishiga bog‘liq. Mamlakatning yirik shaharlarida ish haqi yoqori bo‘lib, u yerlarda malakali mutaxassislarga talab katta<sup>2</sup>.

2019-yilning 1-yarmida XXRsining 4 ta mintaqasi – Pekin, Chunsin, Shensi va Shanxayda MIHM o‘sdi. Shu bilan birga, mazkur yilning 2-yarmida Xebeyda ham MIHM oshirildi. Xitoyning ko‘pchilik mintaqalarida MIHMning turlicha darajalari amalda yuritiladi va ular A, B, C va D zonalariga (ularning rivojlanish darajasiga va hayot qiymatiga qarab) taqsimlangan. Buni biz quyidagi jadvalda kuzatishimiz mumkin<sup>3</sup>.

### 1-jadval. 2023-yilda XXRda MIHM ning eng yuqori va eng past ko‘rsatkichlari,

<sup>1</sup><https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2>

<sup>1.1</sup> China and the world: Inside the dynamics of a changing relationship. July 2019.12p.

<sup>2</sup> Vivek Arora and Athanasios Vamvakidis. China’s Economic Growth: International Spillovers. 2010 International Monetary Fund.-P.9

<sup>3</sup>China and the world: Inside the dynamics of a changing relationship. July 2019. – P.12.

[www.sharqjurnali.uz](http://www.sharqjurnali.uz)


DOI: 10.5281/zenodo.15342237

## yuanda<sup>4</sup>

T/r	Hudud	Eng yuqori MIHM	Hudud	Eng past MIHM
1.	Shanxay	2590	Tyantzin	2180
2.	Pekin	2320	Xenan	2000
3.	Shenchjen	2360	Szyansu	1900

1-jadval ma]lumotlari asosida XXR aholisining turli qatlamlari orasidagi daromadlar tengsizligi katta bo‘lgan mamlakat deyish mumkin.

Endi biz misol tariqasida Shanxay shahridagi minimal oylik ish haqining 2010-2019 yillardagi o‘sish dinamikasini ko‘rib chiqamiz



**1-rasm. Shanxayda minimal oylik ish haqining 2010-2019 yillardagi o‘sish dinamikasi<sup>5</sup>**

2019-yilda mamlakatdagi minimal ish haqi miqdorini o‘sish sur’ati o’tgan 2018 yilga nisbatan bir muncha sekinlashdi. Uning sababi hozirgi kungacha davom etib kelayotgan va Xitoyning iqtisodiy o‘sishiga halaqit berayotgan Xitoy-AQSH savdo urushi hisoblanadi. Bunday noaniqlik sharoitida mintaqaga mahalliy hukumat organlari ish haqi miqdorlarini muzlatib qo‘yishni to‘g‘ri deb biladilar. Minimal ish haqidan ko‘proq bo‘lgan mablag‘ni, faqatgina, chet el kapitali ulushi mavjud bo‘lgan kompaniyalarda ishlaydigan xitoyliklar oliadilar. Masalan, Shanxayda

<sup>4</sup> <https://moneyscanner.ru/srednyaya-zarplata-v-kitae/>


<sup>5</sup> <https://moneyscanner.ru/srednyaya-zarplata-v-kitae/>  
[www.sharqjurnali.uz](http://www.sharqjurnali.uz)

shunday korxonalarda faoliyat yurituvchi ishchilar oyiga 9-10 ming yuan maosh olhadilar. Bu esa mahalliy MIHMDan 4 marotaba ko‘p hisoblanadi

Shuni aytish lozimki, XXRda ish haqi miqdori o‘sishda davom etishining sababi mehnatga layoqatli aholining asta-sekin qisqarib borishiga bog‘liqdir. 2018 yilda Xitoyda ish bilan band bo‘lgan aholi soni tarixda birinchi marotaba qisqarishni boshladi va ular 540 ming kishiga qisqarib, mamlakatda mehnatga layoqatlilarning umumiy soni 776 mln. kishini tashkil etdi. 2019-yilda o‘rtacha ish haqi miqdorining o‘sish sur’ati bo‘yicha Xitoy OTO mintaqasi mamlakatlari orasida yetakchilik qildi. 2020-yilda mazkur ko‘rsatkich 5 foizga teng bo‘ldi. Qiyoslash uchun EI mamlakatlarida bu ko‘rsatkich 1,5 foizga teng bo‘lgan.

Xitoy jahondagi juda tez rivojlanayotgan iqtisodiyotlar qatoriga kirib, yalpi ichki mahsulotining yillik o‘sish sur’ati 2018 yilda 9,5 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich Jahon banki tomonidan “yirik iqtisodiyotning tarixdagu eng tezkor barqaror kengayishi” deb ta’riflandi<sup>6</sup>. 2019 yil Jahon Banki statistik ma’lumotlariga asosan, Xitoy yalpi ichku mahsuloti xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha (27,3 trln AQSH dollarni tashkil etdi) va jahonda birinchi o‘rinni egalladi.

Hozirgi davrda XXRdagi o‘rtacha ish haqi – 6982 yuanga (997 AQSh dollari) teng bo‘lib, biz 2-rasm orqali uning 2010-2020-yillar mobaynidagi o‘sish dinamikasini kuzatish mumkin.



<sup>6</sup> China’s Economic Rise: History, Trends, Challenges, Implications for the United States. 2019.- P.2.  
[www.sharqjurnali.uz](http://www.sharqjurnali.uz)

## 2-rasm. 2010-2020-yillarda XXRda o‘rtacha ish haqi dinamikasi, AQSH dollarida<sup>7</sup>

2-rasmdan ko‘rinib turganidek, Xitoyda o‘rtacha ish haqi yildan-yilga o‘sish dinamikasiga ega bo‘lib, ularning o‘sishi mamlakat miqyosida turli sur’atlarda kechmoqda. Agar 2017-yilda butun XXR bo‘yicha o‘rtacha ish haqi 7 foizga ko‘paygan bo‘lsa, Shenchjenda u 5,2 foizni, Pekinda 3,2 foizni (eng past ko‘rsatkich) tashkil etgan va bu raqamlardan - 2,6 foizlik infliyatsiya olib tashlangan. (hozirgi kunda 1 AQSh dollari – 7,07 yuanga teng)

Aytish lozimki, XXRda o‘rtacha ish haqi miqdoriga mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish sur’atlari va ishlab chiqarishni modernizatsiyalash jarayonlari o‘z ta’sirini o‘tqazmoqda. Mamlakatda qashshoq provinsiyalar aholisining ish haqi mamlakat o‘rtacha ko‘rsatkichidan sezilarli darajada past. Vaholanki, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi uchun katta mablag‘ talab etuvchi malakali kadrlar talab qilinadi<sup>8</sup>.

Ma’lumki, XXRda turli toifadagi ishchi va xizmatchilarining o‘rtacha yillik ish haqi ham bir-biridan farq qiladi.

### 2-jadval. XXRda turli kategoriyalidagi ishchi va xizmatchilarining o‘rtacha yillik ish haqi, ming yuanda<sup>9</sup>

t/n	Ishchi xodimlar kategoriyasi	Ish haqi, yiliga ming yuanda
1.	Oddiy xodim	75,0
2.	Malakali ishchi xodim	93,0
3.	Qishloq xo‘jaligidagi ishchi - xodimlar	25,2

Shuni ta’kidlash lozimki, Xitoy mintaqalarida o‘rtacha oylik ish haqi miqdori ham turlicha bo‘lib, Pekin shahri bu ko‘rsatkich bo‘yicha ro‘yxatning boshini egalladi. Bu erda ischi xodimlarning ish haqi 1600 AQSH dollarini yoki 11.2 ming yuanni tashkil etdi.

### 3-jadval.

<sup>7</sup> <https://moneyscanner.ru/srednyaya-zarplata-v-kitae/asosida/muallif/tomonidan/tuzildi>


<sup>8</sup> Чэн Ли Текущая ситуация и контрмеры макроэкономического бремени в Китае = 我国宏观税负水平的现状及对策 / Чэн Ли = 陈莉 // Финансы и торговля. Экономика = 财贸经济 – 2002. – № 10. – С.70.

<sup>9</sup> <https://moneyscanner.ru/srednyaya-zarplata-v-kitae/asosida/muallif/tomonidan/tuzildi>

## Xitoyni eng yirik shaharlarida o‘rtacha oylik ish haqi miqdori, AQSh doll.da<sup>10</sup>

t/n	Shaharlar	O‘rtacha oylik ish haqi miqdori AQSh doll.,	Yuanda
1.	Pekin	1600	11,200
2.	Shanxay	1522	10,700
3.	Shenchjen	1440	10,100
4.	Xanchjou	1210	8474

XXRning yirik shaharlarida o‘rtacha oylik ish haqi orasidagi farqlarni bilishimiz uchun, mamlakatning nisbatan yirik shaharlaridagi holatlarni tahlul qilish maqsadga muvofiq.



**3-rasm. Xitoyning alohida shaharlaridagi o‘rtacha oylik ish haqi, AQSh \$ da<sup>11</sup>**

3-rasmdan ma’lumotlaridan eng katta o‘rtacha oylik ish haqi Pekin, Shanxay va Shenchjenda, eng kam ish haqi esa Sian va Shenyan shaharlarida ekanligini ko‘rish mumkin.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Xitoy shahar aholisining ahamiyatli qismi oyiga 5-6 ming yuan ish haqi oliadilar. Agar ularning ulushini har bir shahar kesimida kuzatadigan bo‘lsak, Shanxayda ularning ulushi - 28,59 foizni, Pekinda - 24,32

<sup>10</sup> [https://moneyscanner.ru/srednyaya-zarplata-v-kitae/asosida mualliflar tomonidan tuzildi](https://moneyscanner.ru/srednyaya-zarplata-v-kitae/asosida-mualliflar-tomonidan-tuzildi)

<sup>11</sup> [https://moneyscanner.ru/srednyaya-zarplata-v-kitae/asosida mualliflar tomonidan tuzildi](https://moneyscanner.ru/srednyaya-zarplata-v-kitae/asosida-mualliflar-tomonidan-tuzildi)

foizni, Shenchjenda - 29,57 foizni, Guanchjouda - 29 foizni va Xanchjouda 33,68 foizni tashkil etadi. XXRda eng ko‘p oylik maosh chet el kompaniyalari (9285 yuan) va listing kompaniyalarida (9191yuan), eng kam oylik ish haqi esa xususiy kompaniyalar (7377 yuan)da kuzatiladi. Mamlakatda maksimal ish haqini moliya sohasida faoliyat yuritadigan xizmatchilar (11200 yuan) oliadilar.

Ish haqi darajasiga tajriba mezoni uncha ham katta ta’sir ko‘rsatmaydi. Xitoy aholisining atigi 22.44 foizi barqaror tarzda 10 yillik mehnat stajiga ega bo‘lib, ularning oylik maoshlari oyiga 10 000 yuanga teng.

Xitoyda o‘rtacha ish haqi birinchi navbatda uning malakasi va qaysi kasbni tanlaganligiga bog‘liq bo‘lib, unda ishchi yoki xodim tub millat vakili yoki migrant ekanligi alohida ahamiyatga ega emas<sup>12</sup>.

Quyida XXRda eng katta va eng kam ish haqiga ega TOP-5 kasblar keltirilgan.

#### 4-jadval.

#### **XXRda eng katta va eng kam ish haqiga ega TOP-5talik kasblar, ming yuanda<sup>13</sup>**

t/r	<b>Eng katta ish haqiga ega TOP-5 lik kasblar</b>	<b>Eng kam ish haqiga ega TOP-5 lik kasblar</b>
1.	Tarjimon-sinxronistlar - 12-24	Qora ishchilar – 1,8
2.	IT mutaxassis, dasturchilar- 9-25	Mehmonxona va restoranda xizmat qiluvchi personal – 2,8
3.	Boshqaruvchilar, menedjerlar- 9-25	Injener – 4,8
4.	Moliyachilar, iqtisodchilar – 8-15	Maktab o‘qituvchisi – 5,7
5.	Oliy ta’lim o‘qituvchilari – 8-13	Zavodda metall erituvchi – 6,3

Shuni ta’kidlash lozimki, mamlakatda yaxshi vakant ish o‘rinlari kam bo‘lganligi sababli, yoqori malakaga ega bo‘lgan kishilarning ham ish topishi ancha murakkab hisoblanadi va ular ko‘p hollarda, muhtojlikdan kam haq to‘laydigan ish o‘rinlariga ham rozi bo‘ladilar.

Navbatdagi TOP-5 talik eng yuqori va eng kam ish haqi sohalariga tegishli bo‘lib, ular quyidagicha taqsimlangan.

<sup>12</sup> Минимальная и средняя зарплата в Китае // <http://visasam.ru/emigration/asia/uoven-zhizni-v-kitae.htm>

<sup>13</sup> [https://moneyscanner.ru/srednyaya-zarplata-v-kitae/asosida mualliflar tomonidan tuzildi](https://moneyscanner.ru/srednyaya-zarplata-v-kitae/asosida-mualliflar-tomonidan-tuzildi)

5-jadval.

**Eng yuqori va eng kam ish haqi sohalariga tehishli TOP-5 talik, ming yuanda<sup>14</sup>**

t/r	Eng yuqori ish haqi belgilangan TOP-5 talik sohalari,	eng kam ish haqi belgilangan TOP-5 talik sohalari,
1.	Foydali qazilmalarni qazib olish – 14,3	Qoshloq xo‘jaligi – 3,0
2.	Moliya-bank sektori – 12,3	Umumiy ovqatlanish – 3,4
3.	IT texnologiyalar – 12,3	Suv ta’minati va chiqindini utilizatsiyalash – 4,0
4.	Fan va ta’lim – 11,9	Qurilish va ta’mirlash – 4,0
5.	Sog‘liqni saqlash- 8,6	Ishlab chiqarish – 4,6

Ma’lumki, XXRda aholining tabaqalanish darajasi yuqori bo‘lgan, biroq oxirgi 40 yil mobaynida mamlakat rahbariyati tomonidan olib borilayotgan oqilona iqtisodiy siyosat natijasida aholi qashshoqlikdan va inqirozdan og‘riqsiz chiqishga erishdi. Agar, mamlakatdagi o‘rtahol sinf 1999- yilda atigi 2 foizni tashkil etgan bo‘lsa. 2013-yilda 39 foizni, 2020-yilga kelib esa deyarli 48 foizni tashkil etdi (qiyoslash uchun Shvetsariyada bu ko‘rsatkich 42 foizni tashkil etadi). XXRda o‘rtahol sinfning 75 foizi past darajali daromad oluvchilar bo‘lsa, Shveysariyada bu ko‘rsatkich atigi 8 foizni tashkil etadi.

Albatta, Xitoyda o‘rtahol sinfning shakllanishi va rivojlanishi oson kechgani yo‘q, uning miqdoran ko‘payishi ham o‘z-o‘zidan yuz bermadi. Buning zaminida mamlakat hukumati tomonidan bu sohani rivojllantirishga qaratilgan islohotlar turibdi.

Hozirgi davrda XXRda shahar va qishloq aholisining nisbati 59:41ni tashkil etmoqda. Shahar aholisining ko‘payib borishiga ularning gurkirab rivojlanishi sabab bo‘lib, unda qishloq aholisi yangi ish o‘rinlari va yengilroq hayot izlab shaharlarga kelayotganligi bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki, har bir mamlakatda o‘z aholisini sinflarga ajratishning mezonlari mavjud bo‘lib, Xitoy hukumati tomonidan belgilangan mezon bo‘yicha u yiliga 60-500 ming yuandan iborat deb hisoblanadi. McKinsey - Xalqaro konsalting

<sup>14</sup> [https://moneyscanner.ru/srednyaya-zarplata-v-kitae/asosida mualliflar tomonidan tuzildi](https://moneyscanner.ru/srednyaya-zarplata-v-kitae/asosida-mualliflar-tomonidan-tuzildi)  
[www.sharqjurnali.uz](http://www.sharqjurnali.uz)

kompaniyasining bu borada o‘zining daromadlar daipozoni bor va u - yiliga 75-280 ming yuan deb belgilashni tavsiya qiladi.

Xitoyda o‘rtahol sinf qatlaming kengayishi quyidagi holatlarga olib keldi:


1. Mamlakatda internetdan va mobil teleafondan foydalanuvchilar soni sezilarli darajada ko‘paydi, hozirda mamlakat aholisining 57 foizdan ortig‘i internetdan foydalanadi, Pekin va Shanxayda bu ko‘rsatkich 75 foizni tashkil etmoqda.

2. Internet magazinlar soni ortdi. Natijada mamlakat elektron tijorat jahon bozorining 43 foizni egalladi.

3. Mamlakatda ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talab ortdi. Xitoy oliv ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish darajasi yiliga 2006 yildagi 5,5 mln. kishidan 2018 yilda 8 mln. kishiga etib, 38 foizga o‘sdi. Xorijga borib o‘qiydiganlar soni esa yiliga 850 ming kishidan oshib ketdi.

4. Xorijga sayohat qiluvchilar soni ko‘paydi.

McKinsey&Companyning ma’lumoti bo‘yicha, 2022-yilda XXRda o‘rtahol sinf vakillari 550 mln. kishini tashkil etgan va u shahar uy xo‘jaligining 75 foizini tashkil etadi. Xitoyda 1980-yildan to 2017-yilgacha Djini koeffitsienti 0,28 dan 0,467 gacha oshdi. AQShda bu ko‘rsatkich 0,39, Yaponiyada 0,33ni tashkil etadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, XXRda daromadlarning taqsimlanishi rivojlangan mamlakarlarga nisbatan notekis.



4-rasm. XXRda Djini koeffitsienti dinamikasi<sup>15</sup>

<sup>15</sup> [https://moneyscanner.ru/srednyaya-zarplata-v-kitae/asosida mualliflar tomonidan tuzildi](https://moneyscanner.ru/srednyaya-zarplata-v-kitae/asosida-mualliflar-tomonidan-tuzildi)  
[www.sharqjurnali.uz](http://www.sharqjurnali.uz)

Agar biz, Xitoyda ish haqidan soliqlar to‘lash yukini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, u aholining daromad miqdoriga bog‘liq bo‘lib, ish haqi 4 ming yuangacha bo‘lsa, undan umuman soliq olinmaydi.

#### 6-jadval.

#### **XXR aholisining mamlakat byudjetiga to‘laydigan soliqlari va ijtimoiy to‘lovlar stavkasi, % da<sup>16</sup>**

	Soliqlar va to‘lovlar turi	Stavka, % da
1.	Daromad solig‘i	5-45
2.	Qo‘sishmcha qiymat solig‘i	3-17
3.	Mulk solig‘i	1,2
4.	Avtomobil sotib olish solig‘i	10
5.	Mulk huquqini o‘tqazish	3-5
6.	Ta’limga soliq	3
7.	Qurilishga soliq	7
8.	Pensiyani sug‘urtalash solig‘i	8
9.	Meditsinani (sog‘lijni) sug‘urtalash solig‘i	2
10.	ishsizlikdan sug‘urtalash solig‘i	0,2
11.	jamg‘arma fondiga uy olish uchun	12

Shuni ta’kidlash lozimki, Xitoyda barcha soliq va to‘lovlarini to‘lab bo‘lgandan so‘nggi o‘rtacha oylik (sof daromad) - 6248 yanni tashkil etdi.

### XULOSA

Xitoy Xalq Respublikasida aholi daromadlarining o‘sishi sezilarli va dinamik tendensiyaga ega. Xitoyning iqtisodiy o‘sishi, davlatning aholi farovonligini oshirishga qaratilgan siyosati, texnologik rivojlanish va xalqaro integratsiya omillari bu jarayonning muhim tarkibiy qismlaridir. Shu bilan birga, shahar va qishloq aholisini daromadlari o‘rtasidagi farq, aholining qarishi va iqtisodiy tengsizlik kabi muammolar kelgusida bu jarayonlarga ham bevosita o‘z ta’sirini o‘tqazmasdan qolmaydi, deb o‘ylaymiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ван Пей. Экспортный сектор в модели экономического развития КНР: автореф. Дис. канд. экон. наук. М., 2010.

<sup>16</sup> [https://moneyscanner.ru/srednyaya-zarplata-v-kitae/asosida mualliflar tomonidan tuzildi](https://moneyscanner.ru/srednyaya-zarplata-v-kitae/asosida-mualliflar-tomonidan-tuzildi)

[www.sharqjurnali.uz](http://www.sharqjurnali.uz)

DOI: 10.5281/zenodo.15342237

2. Ли Цзин Вэнь. Анализ и прогнозирование основных проблем экономики современного Китая // Прогнозирование развития КНР: экономика, информатика, внешняя политика и безопасность / РАН ИДВ. – М., 2000, вып.9
3. Ли Кэцян. Доклад о работе Правительства на 5-й сессии Все китайского собрания народных представителей 12-го созыва 5 марта 2017
4. Мечта: совмещение «китайской» и «мировой» мечты. – Пекин: Изд-во литературы на иностранных языках, 2015. – 32 с.
5. Попов А.И. Экономическая теория. – СПб.: Питер, 2001. – 464 с.;
6. Перспективы: Китай в действии. – Пекин: Изд-во литературы на иностранных языках, 2015. – 32 с.
7. 中国收入分配制度变迁下的居民收入差距形成研究\_刘海波 2016
8. 王小鲁.樊纲.中国收入差距的走势和影响因素分析. Wángxiǎolü. Fángāng. Zhōngguó shōurù chājùde zǒushì hé yǐngxiǎng yīnsù fēnxī (Ван Сяолу、Фань Ган. Xitoyda daromad buzilishiga ta’sir qiluvchi tendentsiyalar va omillarni tahlil qilish) // 经济研究 Jīngjì yánjiū Iqtisodiy tadqiqotlar.2005 (10)24-36
9. 中国收入差距变动分析 2016